TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun « Dasturlash 1,2 » fanidan yakuniy nazorat savollari**
**Imtihon shakli: amaliy**

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | A | 1 | Kvadratning tomoni a berilgan. Uning perimetri va yuzini hisoblash algoritmini blok-sxema ko‘rinishida tuzing va C++ da dasturini yozing. |
| 2 | 1 | A | 1 | Aylananing radiusi R berilgan. Uning uzunligi va doira yuzini hisoblash algoritmini blok-sxema ko‘rinishida tuzing va dasturini yozing. |
| 3 | 1 | A | 1 | Konusning balandligi h va asosining radiusi r berilgan. Uning hajmini hisoblash algoritmini blok-sxemada tasvirlang va dasturini yozing. |
| 4 | 2 | A | 1 | Ikki butun son berilgan. Ularning kattasini aniqlash algoritmini blok-sxema ko‘rinishida tuzing va dasturini yozing. |
| 5 | 2 | A | 1 | Uchta butun son berilgan. Ularning eng kichigini aniqlash algoritmini blok-sxemada tasvirlang va dasturini yozing. |
| 6 | 2 | A | 1 | ax + b = 0 chiziqli tenglamaning ildizini topish algoritmini blok-sxemada tuzing (a = 0 holatini ham hisobga oling) va dasturini yozing. |
| 7 | 2 | A | 1 | N natural son berilgan. 1 dan N gacha natural sonlar yig‘indisini hisoblash algoritmini blok-sxema ko‘rinishida tuzing va dasturini yozing. |
| 8 | 3 | A | 1 | N natural son berilgan. N! ni hisoblash algoritmini blok-sxemada tuzing va dasturini yozing. |
| 9 | 3 | A | 1 | Ikki natural sonning EKUBini Evklid algoritmi bo‘yicha topish algoritmini blok-sxemada tuzing, a = 48 va b = 18 uchun ishlashini jadval orqali ko‘rsating va dasturini yozing. |
| 10 | 2 | A | 2 | Talabaning ismi, tug‘ilgan yili va joriy yil kiritiladi. Dastur uning yoshini, 5 yildan keyingi yoshini va tug‘ilgan yilidan beri o‘tgan taxminiy kunlar sonini (1 yil = 365 kun) hisoblab, natijani “<Ism>, siz ... yoshdasiz” ko‘rinishidagi to‘liq jumlalar bilan chiqarsin. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 11 | 2 | A | 2 | Burchak graduslarda berilgan. Uni radianga o‘tkazib, sin, cos va tg qiymatlarini hisoblang (<cmath>) hamda $\sin^2 + \cos^2$ ifodasining qiymatini chiqarib, tekshiring. |
| 12 | 1 | A | 2 | Quyidagi dasturda sintaksis xatolar bor. Ularni toping, to‘g‘rilab ishlaydigan dasturga aylantiring va a = 4, b = 5 qiymatlari uchun dastur natijasini yozing:<br>#include <iostream><br>using namespace std<br>int main() {<br>int a, b;<br>cout << "a va b ni kiriting: ";<br>cin >> a >> b<br>const double k = 2.5;<br>k = k + 1;<br>int p = 2 * (a + b);<br>double S = a * b / k<br>cout << "Perimetr: " << perimetr << endl;<br>cout << "Yuza: " << S << endl;<br>retrun 0;<br>} |
| 13 | 2 | A | 2 | Aylananing radiusi R berilgan. Uning uzunligini va doira yuzini hisoblovchi dastur yozing (π qiymatini const sifatida e’lon qiling). |
| 14 | 2 | A | 2 | Ikki butun son berilgan. Ularning yig‘indisi, ayirmasi, ko‘paytmasi va bo‘linmasini (haqiqiy son ko‘rinishida) chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 15 | 2 | A | 2 | To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari a va b berilgan. Uning gipotenuzasini va yuzini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 16 | 2 | A | 2 | Konusning balandligi h va asosining radiusi r berilgan. Uning yon sirtini va to‘la sirtini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 17 | 2 | A | 2 | Rombning tomoni a va balandligi h berilgan. Uning perimetri va yuzini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 18 | 3 | A | 2 | Teng tomonli uchburchakning tomoni a berilgan. Uning perimetri, yuzi, balandligi va ichki chizilgan aylana radiusini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 19 | 1 | A | 3 | Ikkita butun son berilgan. Ularning qiymatlarini uchinchi o‘zgaruvchi yordamida almashtiruvchi dastur tuzing. |
| 20 | 1 | A | 3 | Ikkita butun son berilgan. Ularning qiymatlarini uchinchi o‘zgaruvchidan foydalanmasdan almashtiruvchi dastur tuzing. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 21 | 2 | A | 3 | x va y berilgan. $(x^2 + y^2) / (x + y)$ ifodaning qiymatini hisoblovchi dastur tuzing (pow funksiyasidan foydalaning). |
| 22 | 2 | A | 3 | Tezlik v (km/soat) va vaqt t (soat) berilgan. Bosib o‘tilgan masofani kilometr va metrlarda hisoblovchi dastur tuzing. |
| 23 | 2 | A | 3 | a va b musbat sonlari berilgan. Ularning o‘rta arifmetigi va o‘rta geometrigini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 24 | 2 | A | 3 | Doiraning yuzi S berilgan. Uning diametri va aylana uzunligini topuvchi dastur tuzing. |
| 25 | 2 | A | 3 | Havo harorati Selsiy shkalasida (C) berilgan. Uni Farengeyt ($F = 1.8 \cdot C + 32$) va Kelvin ($K = C + 273.15$) shkalalariga o‘tkazuvchi dastur tuzing. |
| 26 | 3 | A | 3 | Uch xonali natural son berilgan. % va / amallari yordamida uning raqamlari yig‘indisi va ko‘paytmasini toping. |
| 27 | 3 | A | 3 | Uch xonali natural son berilgan. Ushbu sonning oxirgi raqamini boshiga o‘tkazuvchi dastur tuzing. |
| 28 | 3 | A | 3 | Sekundlarda berilgan vaqtni (N) soat, minut va sekund ko‘rinishida chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 29 | 2 | A | 4 | sizeof operatori yordamida int, double va char turlarining xotirada egallagan hajmini aniqlang. Shu asosda 1 MB (1 048 576 bayt) xotiraga har bir turdagi nechta o‘zgaruvchi sig‘ishini hisoblash dasturini yozing. |
| 30 | 2 | A | 4 | int x = 4, y = 3; int p = x++ * --y; int q = y-- + ++x; int r = p - q; amallarini bajaring. Natijalarni (x, y, p, q, r) avval qo‘lda hisoblab, so‘ng dastur chiqargan natija bilan solishtiring. |
| 31 | 2 | A | 4 | Haqiqiy x soni berilgan. Taqqoslash va mantiqiy amallar yordamida bitta ifodada x ning (-3; 2] oraliqqa tegishli yoki $\|x\| > 10$ ekanligini tekshirib, natijani 0 yoki 1 ko‘rinishida chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 32 | 2 | A | 4 | x butun soni berilgan. Qo‘shma o‘zlashtirish operatorlari (+=, *=, %=) yordamida x ni 3 ga ko‘paytiring, 7 ga oshiring va hosil bo‘lgan sonni 5 ga bo‘lgandagi qoldiqni chiqaring. |
| 33 | 3 | A | 4 | Pul summasi N so‘m (butun son) berilgan. Uni 50000, 10000, 5000 va 1000 so‘mlik banknotlarga eng kam sondagi banknotlar bilan yoyib, har bir nominaldagi banknotlar sonini va qolgan summani chiqaruvchi dastur tuzing. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 34 | 3 | A | 4 | Uch xonali natural son berilgan. Uning raqamlari kublarining yig‘indisi sonning o‘ziga tengligini (Armstrong soni) bitta mantiqiy ifoda bilan tekshiruvchi dastur tuzing. |
| 35 | 2 | A | 4 | a, b, c butun sonlari berilgan. (a + b * c > 10) && !(a % 2 == 0) mantiqiy ifodaning qiymatini hisoblab chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 36 | 3 | A | 4 | Ikki xonali natural son berilgan. Uning raqamlari o‘rnini almashtirib hosil qilingan sonni chiqaruvchi dastur tuzing (masalan, 47 uchun 74). |
| 37 | 3 | A | 4 | Musbat haqiqiy x soni berilgan. Uning butun qismini, kasr qismini va eng yaqin butun songa yaxlitlangan qiymatini floor va ceil funksiyalarisiz, tur o‘zgartirish va arifmetik amallar yordamida toping. |
| 38 | 3 | A | 5 | Ikki xil mahsulotning nomi, narxi (haqiqiy son) va miqdori kiritiladi. Chek chiqaring: nomlar chapga, narx va miqdor o‘ngga tekislangan ustunlarda, har bir mahsulotning summasi, jami summa, QQS (12%) va to‘lanishi lozim bo‘lgan summa 2 xonali aniqlikda ko‘rsatilsin. |
| 39 | 3 | A | 5 | Sutkaning boshidan o‘tgan sekundlar soni N berilgan. Soat, minut, sekundni alohida qatorlarda chiqarish va 1000 sekund keyingi vaqtni (sutka almashishini hisobga olib) topish kerak. |
| 40 | 2 | A | 5 | Uchta haqiqiy sonning yig‘indisi, o‘rta arifmetigi va kvadratlari yig‘indisini `\t` belgisi bilan «Nomi: qiymat» ko‘rinishida chiqarish kerak. |
| 41 | 3 | A | 5 | Ikki nuqta orasidagi masofa, kesma o‘rtasi va diagonali shu nuqtalarda bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri va yuzini hisoblanang. |
| 42 | 3 | A | 5 | Kvadratga ichki va tashqi chizilgan aylanalarning radiuslari va yuzlari hisoblanadi. Tashqi doira yuzi ichki doira yuzidan necha marta katta ekanli ham topilsin. |
| 43 | 2 | A | 5 | Avtomobil L km masofa bosib o‘tdi va 100 km ga q litr yoqilg‘i sarfladi. 1 litr yoqilg‘ining narxi p so‘m. Sarflangan yoqilg‘i miqdorini, umumiy xarajatni va 1 km yo‘lning narxini chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 44 | 2 | A | 5 | Uchburchakning tomonlari a, b, c berilgan (uchburchak mavjud deb hisoblang). Uning yuzini Geron formulasi bo‘yicha hisoblab. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 45 | 3 | A | 5 | Bankka S so‘m yillik p foiz bilan qo‘yildi (murakkab foiz: har yil oxirida foiz asosiy summaga qo‘shiladi). 3 yildan keyingi umumiy summani va shu muddatda olingan foydani hisoblang. Natijani oddiy foiz (S·(1 + 3·p/100)) bo‘yicha olinadigan summa bilan solishtirib, ikkala usul orasidagi farqni ham izohli matn bilan chiqaring. |
| 46 | 3 | A | 5 | Uch xonali natural son kiritiladi. Uning raqamlarini bo‘shliq bilan ajratib, alohida-alohida chiqaruvchi dastur tuzing (masalan, 507 uchun “5 0 7”). |
| 47 | 1 | A | 6 | Butun son berilgan. Uning bir vaqtda 3 ga va 5 ga karrali ekanligini bool o‘zgaruvchi yordamida aniqlovchi dastur tuzing. |
| 48 | 2 | A | 6 | Uch xonali natural son berilgan. Uning raqamlari yig‘indisi juft yoki sonning o‘zi 5 ga karrali ekanligini bitta mantiqiy ifoda bilan aniqlab, natijani “HA” yoki “YO‘Q” ko‘rinishida chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 49 | 2 | A | 6 | Y yil berilgan. Mantiqiy ifoda yordamida uning kabisa yili ekanligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 50 | 2 | A | 6 | x soni [-5; 5] kesmaga tegishli, lekin nolga teng emasligini tekshiruvchi mantiqiy ifodani yozing va dasturini tuzing. |
| 51 | 2 | A | 6 | (x; y) nuqta markazi koordinatalar boshida bo‘lgan R radiusli doira ichida yoki chegarasida yotishini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 52 | 2 | A | 6 | a, b, c sonlari berilgan. Ular uchburchakning tomonlari bo‘la oladimi? Mantiqiy ifoda yordamida aniqlang. |
| 53 | 2 | A | 6 | A, B, C mantiqiy o‘zgaruvchilar (0 yoki 1) kiritiladi. (A && !B) \|\| C ifodaning qiymatini chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 54 | 3 | A | 6 | a, b, c tomonlari berilgan uchburchakning turini (teng tomonli, teng yonli, turli tomonli) aniqlovchi dastur tuzing (uchburchak mavjud deb hisoblang). |
| 55 | 3 | A | 6 | (x; y) nuqta markazi koordinatalar boshida bo‘lgan, tomoni 2a bo‘lgan kvadratga tegishli, lekin radiusi R bo‘lgan doiraga tegishli emasligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 56 | 3 | A | 6 | a va b sonlari berilgan. !(a > 5 && b < 3) ifodani De Morgan qoidasi bo‘yicha o‘zgartirib yozing va ikkala ifoda bir xil natija berishini dasturda tekshiring. |
| 57 | 2 | A | 7 | Haqiqiy x soni berilgan. y funksiyaning qiymatini hisoblang: $x < 0$ bo‘lsa $y = x^2 + 1$; $0 \le x < 5$ bo‘lsa $y = 2x + 3$; $x \ge 5$ bo‘lsa $y = \sqrt{x} + 10$. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 58 | 2 | A | 7 | Uch xonali natural son berilgan. Uning raqamlari qat’iy o‘sish tartibida joylashgan bo‘lib, yig‘indisi 3 ga karrali bo‘lsa “HA”, aks holda “YO‘Q” so‘zini chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 59 | 2 | A | 7 | Kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlari (a, b, c) berilgan. Diskriminant usuli bilan uning ildizlarini aniqlovchi dastur yozing. |
| 60 | 2 | A | 7 | Uchta butun son berilgan. Ulardan eng kattasini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 61 | 2 | A | 7 | Talabaning bali (0–100) berilgan. Uni baholarga aylantiring: 86–100 – “5”, 71–85 – “4”, 55–70 – “3”, qolgan hollarda – “2”. |
| 62 | 2 | A | 7 | Uchta turli butun son berilgan. if-else operatorlari yordamida ularning kattaligi bo‘yicha o‘rtadagi sonini (eng kattasi ham, eng kichigi ham bo‘lmagan sonni) aniqlovchi dastur tuzing. |
| 63 | 2 | A | 7 | Uchta haqiqiy son berilgan. Ulardan nechtasi (1; 3) intervalga tegishli ekanligini aniqlang: bittasi bo‘lsa “BIR”, ikkitasi bo‘lsa “IKKI”, hammasi bo‘lsa “UCH”, birortasi ham bo‘lmasa 0 chop etilsin. |
| 64 | 3 | A | 7 | OX va OY koordinata o‘qlarida yotmaydigan nuqta berilgan. Nuqta joylashgan koordinata chorakni aniqlovchi dastur tuzing. |
| 65 | 3 | A | 7 | M(x; y) nuqta berilgan. Uning koordinata tekisligining qayerida (qaysi chorakda, qaysi o‘qda yoki koordinata boshida) joylashganini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 66 | 3 | A | 7 | D (kun) va M (oy) butun sonlari berilgan (kabisa bo‘lmagan yil sanasi). Berilgan sanadan keyingi sanani aniqlovchi dastur tuzing. |
| 67 | 3 | A | 7 | Uch xonali natural son berilgan. Uning raqamlari orasida bir xil raqamlar bor-yo‘qligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 68 | 2 | A | 8 | Bugungi hafta kunining tartib raqami (1–7) va N butun soni berilgan. N kundan keyin hafta kunining nomi nima bo‘lishini switch va % amali yordamida aniqlovchi dastur tuzing. |
| 69 | 3 | A | 8 | Uch xonali natural son berilgan. Uni so‘z bilan chiqaruvchi dastur tuzing (masalan, 507 uchun “besh yuz yetti”). Har bir xona uchun switch dan foydalaning. |
| 70 | 2 | A | 8 | Oyning tartib raqami (1–12) berilgan. Bir nechta case ni birlashtirib, shu oy tegishli faslni aniqlovchi dastur tuzing. |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 71 | 2 | A | 8 | Ikkita son va amal belgisi (+, -, *, /) kiritiladi. switch yordamida kalkulyator dasturini tuzing (nolga bo‘lishni tekshiring). |
| 72 | 2 | A | 8 | Lotin harfi berilgan. Uning unli yoki undosh ekanligini switch yordamida aniqlovchi dastur tuzing. |
| 73 | 2 | A | 8 | Baho (2, 3, 4, 5) berilgan. switch yordamida mos izohni chiqaring: 5 – “A’lo”, 4 – “Yaxshi”, 3 – “Qoniqarli”, 2 – “Qoniqarsiz”. |
| 74 | 2 | A | 8 | Hafta kunining tartib raqami (1–7) berilgan. Case larni birlashtirib, u ish kuni yoki dam olish kuni ekanligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 75 | 3 | A | 8 | Menyu tuzing: 1 – doira, 2 – kvadrat, 3 – to‘g‘ri to‘rtburchak. Foydalanuvchi tanlovi bo‘yicha figuraning yuzini hisoblovchi dastur yozing. |
| 76 | 3 | A | 8 | Oy va yil berilgan. Kabisa yilini hisobga olgan holda, shu oyda necha kun borligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 77 | 3 | A | 8 | Menyu tuzing: 1 – dollar, 2 – yevro, 3 – rubl. Foydalanuvchi tanlagan valyuta va so‘mdagi summa asosida (kurslar o‘zgarmas sifatida e’lon qilinadi) shu summaning valyutadagi miqdorini hisoblang. |
| 78 | 2 | A | 9 | 1 dan 100 gacha bo‘lgan natural sonlar ichidan raqamlari yig‘indisi 10 ga teng bo‘lgan sonlarni topib, ularni chop etuvchi va nechta ekanligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 79 | 2 | A | 9 | N natural soni berilgan. 1 dan N gacha bo‘lgan natural sonlar yig‘indisini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 80 | 2 | A | 9 | N natural soni berilgan (N < 20). N! ni hisoblovchi dastur yozing. |
| 81 | 2 | A | 9 | N butun soni berilgan (N > 0). S = 1 + 1/2 + 1/3 + ... + 1/N yig‘indini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 82 | 2 | A | 9 | N butun soni berilgan (N > 0). $S = 1^2 + 2^2 + 3^2 + ... + N^2$ yig‘indini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 83 | 2 | A | 9 | N butun soni berilgan (N > 0). P = 1.1 · 1.2 · 1.3 · ... (N ta ko‘paytuvchi) ko‘paytmani hisoblovchi dastur tuzing. |
| 84 | 2 | A | 9 | a dan b gacha bo‘lgan oraliqda 3 ga ham, 7 ga ham bo‘linadigan sonlarning sonini va yig‘indisini toping. |
| 85 | 2 | A | 9 | 10 dan 211 gacha bo‘lgan barcha toq sonlar yig‘indisini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 86 | 2 | A | 9 | $y = x^2 + x + 41$ funksiyaning qiymatlarini $0 \le x \le 41$ oraliqda butun x lar uchun hisoblovchi dastur tuzing. |
| 87 | 3 | A | 9 | N butun soni berilgan (N > 0). Fibonachchi ketma-ketligining dastlabki N ta hadini chop etuvchi dastur tuzing (F1 = 1, F2 = 1, Fk = Fk-2 + Fk-1). |

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|---|---|---|---|---|
| 88 | 3 | A | 9 | Ichma-ich sikllardan foydalanib, 1 dan 9 gacha ko‘paytirish jadvalini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 89 | 3 | A | 9 | Natural son berilgan. for sikli va break operatori yordamida uning tub yoki murakkab ekanligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 90 | 3 | A | 9 | n natural soni berilgan. Ichma-ich sikllar yordamida “*” belgilaridan iborat, 1-qatorda 1 ta, 2-qatorda 2 ta, ..., n-qatorda n ta yulduzchali to‘g‘ri burchakli uchburchak shaklini chiqaring. |
| 91 | 2 | A | 10 | n natural soni berilgan. while sikli yordamida 2 ning n dan oshmaydigan eng katta darajasini va uning daraja ko‘rsatkichini toping. |
| 92 | 2 | A | 10 | Natural son berilgan. while sikli yordamida uning raqamlari yig‘indisini toping. |
| 93 | 2 | A | 10 | Natural son berilgan. Uning raqamlarini teskari tartibda chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 94 | 2 | A | 10 | Nol kiritilguncha kiritilgan butun sonlarning yig‘indisini va sonini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 95 | 2 | A | 10 | do-while yordamida foydalanuvchidan 1 dan 10 gacha bo‘lgan son kiritilguncha qayta-qayta so‘raydigan dastur tuzing. |
| 96 | 2 | A | 10 | Ikki natural sonning EKUBini Evklid algoritmi (while sikli) yordamida topuvchi dastur tuzing. |
| 97 | 2 | A | 10 | A haqiqiy va N (N > 0) butun sonlari berilgan. Sikl yordamida A ning N-darajasini hisoblovchi dastur tuzing (pow funksiyasidan foydalanmang). |
| 98 | 3 | A | 10 | Bankka boshlang‘ich S so‘m qo‘yildi. Har oyda mavjud summa p foizga oshadi (0 < p < 25). Necha oydan keyin boshlang‘ich qiymat 2 martadan ko‘p bo‘lishini hisoblovchi dastur tuzing. |
| 99 | 3 | A | 10 | n va m butun musbat sonlari berilgan (n > m). n sonini m ga bo‘lishning butun va qoldiq qismlarini bo‘lish hamda qoldiq olish amallarini ishlatmasdan toping. |
| 100 | 3 | A | 10 | Natural son berilgan. Uning palindrom (chapdan o‘ngga va o‘ngdan chapga bir xil o‘qiladigan) son ekanligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 101 | 3 | A | 10 | n butun soni berilgan (n > 0). Bo‘lish va qoldiq olish amallari yordamida son raqamlari orasida 2 raqami bor-yo‘qligini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 102 | 3 | A | 10 | n butun soni berilgan (n > 0). Bo‘lish va qoldiq olish amallari yordamida son raqamlari orasida toq raqamlar bor-yo‘qligini aniqlovchi dastur tuzing. |